

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**COMPARATIVE-TYOLOGICAL ANALYSIS OF GRAMMATICAL CATEGORIES AND THE LEXICAL-SEMANTIC LEVEL IN UZBEK AND ARABIC LANGUAGES***Samariddin Mardonov**Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy**E-mail: samariddinmardonov128@gmail.com**Denau, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: comparative typology, agglutination, internal inflection, semantic transformation, grammatical gender, dual form, interference.

Received: 15.05.26**Accepted:** 16.05.26**Published:** 17.05.26

Abstract: This article analyzes the grammatical and lexical-semantic features of the Uzbek and Arabic languages from a comparative-typological perspective. The study compares the structural differences between agglutinative and inflectional systems, as well as the functional aspects of grammatical gender, number, and definiteness-indefiniteness categories. In addition, the semantic transformation of certain Arabic borrowings in the Uzbek language is examined through examples. The findings of the study help explain some interference-related difficulties encountered in teaching Arabic to Uzbek learners.

O'ZBEK VA ARAB TILLARIDA GRAMMATIK KATEGORIYALAR HAMDA LEKSIK-SEMANTIK SATHNING QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI*Samariddin Mardonov**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**E-mail: samariddinmardonov128@gmail.com**Denov, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: qiyosiy tipologiya, agglyutinatsiya, ichki fleksiya, semantik transformatsiya, grammatik jins, tasniya, interferensiya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek va arab tillarining grammatik hamda leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida agglyutinativ va flektiv tizimlarning strukturaviy tafovutlari, grammatik jins, son hamda aniqlik-noaniqlik kategoriyalarining funksional jihatlari qiyoslandi. Shuningdek, arab tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan ayrim

birliklarning semantik transformatsiyasi misollar asosida o'rganildi. Tadqiqot natijalari arab tilini o'zbek auditoriyasida o'qitish jarayonida uchraydigan ayrim interferension muammolarni izohlashga yordam beradi.

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГРАММАТИЧЕСКИХ КАТЕГОРИЙ И ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКОГО УРОВНЯ В УЗБЕКСКОМ И АРАБСКОМ ЯЗЫКАХ

Самариддин Мардонов

Денауский институт предпринимательства и педагогики

E-mail: samariddinmardonov128@gmail.com

Денов, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: сравнительная типология, агглютинация, внутренняя флексия, семантическая трансформация, грамматический род, двойственное число, интерференция.

Аннотация: В данной статье анализируются грамматические и лексико-семантические особенности узбекского и арабского языков в сравнительно-типологическом аспекте. В ходе исследования были сопоставлены структурные различия агглютинативной и флективной систем, а также функциональные особенности категорий рода, числа и определённости/неопределённости. Кроме того, на основе примеров рассматривается семантическая трансформация некоторых арабских заимствований в узбекском языке. Результаты исследования помогают объяснить отдельные интерференционные трудности, возникающие при обучении арабскому языку узбекской аудитории.

Kirish. Qiyosiy-tipologik tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday tadqiqotlar turli til oilalariga mansub tillarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlashga yordam beradi. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub agglyutinativ til bo'lsa, arab tili somiy tillar guruhiga kiruvchi flektiv tildir. Shu sababli ushbu ikki tilning grammatik qurilishi va semantik tizimi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Arab tilining o'zbek tiliga ta'siri tarixiy jihatdan uzoq davrlarni qamrab oladi. Ayniqsa, diniy, ilmiy va madaniy qatlamdagi ko'plab so'zlar arab tilidan o'zlashgan. Biroq bu birliklarning semantik va grammatik moslashuvi har doim ham bir xil kechmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi – o'zbek va arab tillaridagi grammatik kategoriyalar hamda leksik-semantik birliklarning qiyosiy-tipologik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, kontrastiv va struktur-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Material sifatida “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, Hans Wehr lug‘ati hamda arab tili grammatikasiga oid ilmiy manbalar tanlandi.

Nazariy asos sifatida J.Greenbergning lingvistik universallar haqidagi qarashlari, B.Comriening tipologik konsepsiyasi hamda U.K.Yusupovning qiyosiy tilshunoslikka oid ishlari o‘rganildi. Ayrim misollar arab tilini o‘rganayotgan talabalar nutqida kuzatilgan real xatolar asosida tanlandi.

3. Agglyutinatsiya va ichki fleksiya

O‘zbek va arab tillari morfologik jihatdan turli tipologik tizimlarga mansub. O‘zbek tilida grammatik ma’no asosan ketma-ket affiksatsiya orqali ifodalanadi. Bunda o‘zakning fonetik tarkibi odatda saqlanib qoladi.

Masalan:

kitob + lar + imiz + da

Mazkur misolda har bir qo‘shimcha alohida grammatik vazifani bajaradi. Reformatskiyning fikricha, agglyutinativ tillarda morfemalar chegarasi nisbatan aniq ajraladi.

Arab tilida esa grammatik ma’no ko‘pincha ichki fleksiya vositasida shakllanadi. Ya’ni konsonant o‘zak tarkibidagi unlilar almashinuvi orqali yangi grammatik ma’no yuzaga keladi.

الجذر	الصيغة	المعنى
ك-ت-ب	كَتَبَ	yozdi
ك-ت-ب	كُتِبَ	yozildi
ك-ت-ب	كِتَابٌ	kitob

Mazkur holat o‘zbek tilida grammatik ma’nolarning, asosan, tashqi affiksatsiya vositasida ifodalanishi bilan izohlanadi. Shu bois arab tilidagi ichki flektiv o‘zgarishlar tizimi o‘zbek auditoriyasi tomonidan dastlabki bosqichlarda murakkab grammatik hodisa sifatida qabul qilinadi.

Semantik transformatsiya va arabizmlar

Arab tilidan o‘zbek tiliga o‘tgan ayrim birliklarda semantik siljish kuzatiladi. Ba’zi hollarda ma’no torayadi, ayrim hollarda esa ixtisoslashadi.

Arabcha o‘zlashmalarning semantik o‘zgarishi

Arabcha so‘z	Arab tilida ma’nosi	O‘zbek tilida ma’nosi
سَيَّارَةٌ	mashina	Sayyora
مَدْرَسَةٌ	maktab	diniy ta’lim muassasasi
عَصَبٌ	nerv	ruhiy holat

Masalan, arab tilida سَيَّارَة (sayyāra) soʻzi zamonaviy nutqda “avtomobil” maʼnosida faol ishlatiladi. Oʻzbek tilida esa u asosan astronomik termin sifatida saqlanib qolgan. Bu holat semantik ixtisoslashuvning qiziqarli namunasi sifatida qaralishi mumkin.

Tahlillar davomida ayrim arabcha birliklar oʻzbek tiliga oʻtgach grammatik jihatdan emas, asosan semantik jihatdan oʻzgarishi kuzatildi. Bu esa leksik qatlamning grammatik tizimga nisbatan dinamikroq ekanligini koʻrsatadi.

Grammatik kategoriyalar tahlili

Grammatik jins kategoriyasi

Arab tilida grammatik jins kategoriyasi markaziy grammatik kategoriyalardan biri hisoblanadi. Mazkur kategoriya ot, sifat, olmosh hamda feʼllarning oʻzaro grammatik moslashuvini taʼminlaydi. Arab tilida jins ikki turga – muzakkar va muannas shakllarga ajraladi. Muannas shakl koʻpincha “ة” (tāʼ marbūṭa) vositasida hosil qilinadi, biroq ayrim hollarda jins semantik yoki eshitilish xususiyatiga koʻra ham belgilanadi.

Oʻzbek tilida grammatik jins kategoriyasi mavjud emasligi sababli arab tilini oʻrganayotgan talabalar jinsga oid moslashuv bilan bogʻliq interferension (murakkab) xatolar uchrab turadi. Ayniqsa, sifat va feʼllarning muannas shaklda qoʻllanishi dastlabki bosqichlarda murakkab grammatik hodisa sifatida namoyon boʻladi.

المذكر	المؤنث	المعنى بالأوزبكية
طَالِب	طَالِبَة	talaba
مُعَلِّم	مُعَلِّمَة	oʻqituvchi
مُدِير	مُدِيرَة	direktor
طَبِيب	طَبِيبَة	shifokor
مُهَنْدِس	مُهَنْدِسَة	muhandis
جَمِيل	جَمِيلَة	chiroyli
مُجْتَهِد	مُجْتَهِدَة	tirishqoq

Son kategoriyasi va tasniya

Arab tilida son kategoriyasi birlik (مفرد), ikkilik (مثنى) va koʻplik (جمع) shakllari orqali ifodalanadi. Xususan, “tasniya”(ikkilik) shaklining mavjudligi arab tilining morfologik tizimida oʻziga xos grammatik hodisa sanaladi. Oʻzbek tilida esa son kategoriyasi birlik va koʻplik shakllari bilan chegaralanadi hamda ikkilik maʼnosi, asosan, leksik vositalar yordamida ifodalanadi.

العربية	Oʻzbekcha maʼnosi
يَدٌ	bir qoʻl
يَدَانِ	ikki qoʻl
أَيْدٍ	qoʻllar

Mazkur holat arab va oʻzbek tillari morfologik tizimlari oʻrtasidagi muhim tipologik tafovutlardan biri hisoblanadi. Arab tilida tasniya shakli grammatik vositalar orqali ifodalansa, oʻzbek tilida ikkilik maʼnosi asosan leksik vositalar yordamida ifodalanadi. Shu sababli tasniya

kategoriyasi arab tilini o‘rganayotgan o‘zbek talabalari uchun murakkab grammatik hodisalardan biri sanaladi.

Sintaktik modellar

Ega (S)	To‘ldiruvchi (O)	Kesim (V)
Talaba	darsni	yozdi
O‘qituvchi	kitobni	tushuntirdi
Bola	xatni	o‘qidi

Arab tilida esa bu model boshqa tartibda faol qo‘llaniladi:

المفعول به (O)	الفاعل (S)	الفاعل (V)
الدَّرْسَ	الطَّالِبُ	كَتَبَ
الكِتَابَ	الوَلَدُ	قَرَأَ
الدَّرْسَ	المُعَلِّمُ	شَرَحَ
المَقَالَةَ	الطَّالِبُ	كَتَبَ
السُّؤَالَ	الْأُسْتَاذُ	سَأَلَ
اللُّغَةَ الْعَرَبِيَّةَ	أَحْمَدُ	دَرَسَ

Greenbergning ta’kidlashicha, gap komponentlarining joylashuvi til tipologiyasining muhim ko‘rsatkichlaridan biridir.

Ayrim hollarda arab tilida SVO modeli ham uchraydi. Bu esa gapning kommunikativ markaziga bog‘liq holda yuz beradi.

Tadqiqot natijalari. Tahlillar natijasida quyidagi holatlar aniqlandi:

- o‘zbek va arab tillari morfologik jihatdan turli tipologik tizimlarga mansub;
- arab tilidagi ichki fleksiya tizimi o‘zbek tilidagi agglyutinativ modeldan sezilarli darajada farq qiladi;
- arabcha o‘zlashmalarda ko‘proq semantik transformatsiya hodisasi kuzatiladi;
- grammatik jins va tasniya kategoriyalari interferension qiyinchiliklarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa. O‘zbek va arab tillarining qiyosiy-tipologik tahlili ushbu tillarning grammatik va semantik jihatdan turli tizimlarga mansubligini ko‘rsatdi. O‘zbek tilida agglyutinativ qurilish ustunlik qilsa, arab tilida ichki fleksiya muhim grammatik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, arab tilidan o‘zlashgan ayrim birliklarning o‘zbek tilida semantik jihatdan qayta shakllanishi kuzatildi. Ayniqsa, jins va tasniya kategoriyalaridagi tafovutlar arab tilini o‘qitish jarayonida interferension muammolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik hamda arab tilini o‘qitish metodikasi uchun muayyan ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Comrie, B. Language Universals and Linguistic Typology. – Oxford: Basil Blackwell, 1989.

2. Greenberg, J.H. Language Universals with Special Reference to Feature Hierarchies. – Hague: Mouton, 1966.
3. Holes, C. Modern Arabic: Structures, Functions and Varieties. – Washington: Georgetown University Press, 2004.
4. Ismoilov, A. Arab tili grammatikasi. – Toshkent: O‘zXIA, 2021.
5. Musulmonov, M.M. Arabcha o‘zlashmalarning semantik transformatsiyasi. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Reformatskiy, A.A. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005.
7. Yusupov, U.K. Qiyosiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
8. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006 – 2008.